



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy  
markazi katta o'qituvchisi

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA XALQ TA'LIMI XODIMLARIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Maqolada uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida xalq ta'limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, unda xalq ta'limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirish yo'llari va ularning ahamiyati batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot kompetentligi, axborot-ta'lim muhiti, kasbiy-pedagogik kompetentlik, kompetensiya, qobiliyat, texnologiya, ta'lim, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, xalq ta'limi xodimlari.

### ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У РАБОТНИКОВ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

В статье обсуждается педагогические условия формирования информационной компетентности работников народного образования в процессе непрерывного профессионального развития. Также подробно описаны способы формирования информационной компетентности у работников народного образования и их значение.

**Ключевые слова:** информация, информационная компетентность, информационно-образовательная среда, профессионально-педагогическая компетентность, компетентность, умение, технология, образование, непрерывное профессиональное развитие, работники народного образования.



## WAYS FOR FORMING INFORMATIONAL COMPETENCE IN PUBLIC EDUCATION WORKERS ON THE BASIS OF INTEGRATIVE APPROACH

The article discusses the pedagogical conditions for the formation of information competence of public education workers in the process of continuous professional development. The ways of forming information competence among public education workers and their significance are also described in detail.

**Key words:** information, information competence, information and educational environment, professional and pedagogical competence, competence, skill, technology, education, continuous professional development, public education workers.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonida mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, o‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o‘z bilim va ko‘nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o‘rgatish, o‘quvchilarning fan bo‘yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholash hamda kasblarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash tizimini joriy etish vazifalari belgilangan.

Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur”.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘p jihatdan xalq ta’limi xodimlarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish, ularning kasbiy-pedagogik kompetentlikka, jumladan axborot kompetentligiga ega bo‘lishlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Shu boisdan ham ularda axborot kompetentligini shakllantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida axborot kompetentligining mohiyati, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida xalq ta’limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va yo‘llari yoritib berilgan.

Ma’lumki, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetentligi – pedagog tomonidan kasbiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalga yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Axborot kompetentligi esa axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalana olish qobiliyatidir.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xalq ta’limi xodimlarida kasbiy sifatlarini, axborot kompetentligini shakllantirish jarayoni qator integrativ pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi:

zamonaviy axborot-ta’lim muhitining mavjudligi;  
axborot kompetentligini rivojlantirishning kasbiy yo‘nalganligini aniqlashtirish;  
uzluksiz kasbiy rivojlantirish modullarini shaxsning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish;

xalq ta’limi xodimlarining o‘z-o‘zida kasbiy sifatlarini, jumladan axborot kompetentligini shakllantirishini rag‘batlantirish;

o‘quv jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish.

Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida axborot kompetentligini shakllantirish quyidagi integrativ tarkibiy qismlarni hisobga olishni talab etadi: 1) kasbiy faoliyat va uning shakllarini amalga oshirishga layoqatlilik; 2) shaxsiy muvaffaqiyatga erishish uchun o‘z salohiyatini namoyon etishga intilish va qobiliyatlilikni aks ettiruvchi xususiyat; 3) jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish malakalarini egallaganlik; 4) xalq ta’limi xodimlarining kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini ifoda etuvchi shaxs sifatleri tavsifi.



Xalq ta'limi tizimining har bir xodimi nafaqat ko'plab kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga tayyor bo'lishi, balki u tashkiliy-boshqaruv faoliyatini samarali amalga oshirishga ham alohida e'tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida xalq ta'limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- AKT va mediasavodxonlik kompetensiyalarining kasbiy-pedagogik faoliyatga mosligi;
- kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarining variativligi;
- kasbiy-pedagogik sohada funkcionallikni ta'minlash;
- ta'limda axborot muhitini yaratish va rivojlantirish;
- xalq ta'limi xodimlarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda modulli o'qitishdan foydalanish;
- AKT va mediasavodxonlik kompetensiyalarini o'zlashtirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat shakllarini uyg'unlashtirish.

O'z tajribalarimizdan kelib chiqib, uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida xalq ta'limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

1) xalq ta'limi xodimlarida axborot kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida "Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish", "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik", "O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari", "Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari", "Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati" kabi modullarning o'quv dasturlarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni, jumladan axborot kompetentligini shakllantirishga doir mavzular ko'lamini kengaytirish;

2) auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida axborot kompetentligini shakllantirishga oid seminarlar, trening mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

3) uzluksiz kasbiy rivojlantirish modullarini o'qitish jarayoniga axborot kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi integrativ ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash;

4) xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida axborot- ta'lim muhitining yaratilishi va uning doimiy rivojlanib borishiga erishish;

5) uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida xalq ta'limi xodimlari uchun davra suhbatlari va bahs-munozaralar tashkil etish va o'tkazish. Buning uchun davra suhbatlari va bahs-munozaralarning mavzulari, rejalari va savollarini xalq ta'limi xodimlariga kurs boshlanishidan oldin yetkazish orqali xalq ta'limi xodimlari uchun kursga mustaqil tayyorgarlik ko'rgan holda kelish, hamkasblari bilan kursgacha o'zaro fikr almashib olish, kutubxona, ommaviy axborot vositalari va internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, uzatish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish xalq ta'limi xodimlarida axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalana olish ko'nikmalarini, ya'ni axborot kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida xalq ta'limi xodimlari uchun loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish imkoniyatini yaratib, ularning eshitish, tahlil qilish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirishga ham zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma. "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.



4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. – Toshkent, 2022-yil 17-yanvar, 25-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i. – Toshkent, 2022-yil 20-aprel, 121-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayanch o‘quv reja va namunaviy o‘quv dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i. – Toshkent, 2022-yil 19-iyul, 236-son.

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

8. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Moliya-iqtisod”. 2012.

9. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. – T.: „O‘qituvchi“, 2004. - 104 b.

10. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2019. – 45 b.

11. Темербекова А.А. и др. Система формирования ИКТ-компетентности педагога на основе использования социальных сетей в образовательном процессе: опыт и перспективы : монография. – Горно-Алтайск, БИЦ ГАГУ, 2017. – 119 с

12. Варламова В.А. Модель формирования информационной компетентности будущих педагогов-бакалавров в условиях двуязычия // Современные проблемы науки и образования, 2015, № 5.

13. ICT Competency Framework for Teachers. Published in 2018 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France.